

BOJXONANI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Buxoro Davlat Universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika
kafedrasи o'qituvchisi **Giyazov B.B.***
*Buxoro Davlat Universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
4-kurs talabasi **Eshbutayev Bekzod***

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli bojxona tushunchasi va uning mohiyati bo'yicha fikr va mulohazalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatida amaliyotga joriy etilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona tartibga solish sohasidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsiyalarning bojxona operatsiyalari jarayonidagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Bunda asosiy e'tibor raqamli texnologiyalar, elektron shakldagi hujjatlar va bojxonani raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish, hamda raqamli texnologiyalarning bojxona huquqiy munosabatlarda tutgan o'rniqa qaratiladi.

Kalit so'zlar: raqamli bojxona; tashqi-iqtisodiy faoliyat; bojxona operatsiyalari; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari; raqamli texnologiyalar; raqamlashtirish; elektron hujjat; bojxona tartibga solish; bojxona huquqiy munosabatlari; samaradorlik.

Bugungi kunga kelib jahonda zamonaviy, innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yaratilishi bilan birga mamlakatimizga yangi texnologiya, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarini shiddat bilan kirib kelishi, jahon iqtisodiyoti va tijorat tarmoqlarini jadal sur'atlarda rivojlanishi, savdo munosabatlarining globallashuvi, iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish shu jumladan, bojxona tartib-taomillarini rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini yaratdi. Bu esa barcha sohalardagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va ushbu sohada rivojlangan davlatlar bilan teng darajada raqobatlashish uchun xorijiy mamlakatlar qonunchilik tizimi bilan unifikatsiyalashtirish, qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish va takomillashtirish zamon talabi ekanligi yaqqol namoyon bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish juda muhim ekanligini alohida ta'kidlab, Mamlakatimizda



2020 yilning “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha boshqa sohalar kabi kadastr, qurilish sohalarini ham to'liq raqamlashtirish taklifi berildi.

Mamlakatimizda bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo’lgan raqamli bojxona doirasida zamonaviy va ilg’or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali bojxona organlari faoliyati shaffofligi hamda samaradorligi tobora ortib bormoqda. Xususan, sohada ko’rsatilayotgan interaktiv xizmatlar soni 2017 yilda 9 tani tashkil etgan bo’lsa, 2021 yilda mazkur interaktiv xizmatlar soni 30 tani tashkil qildi.

Bundan tashqari 10 dan ortiq avtomatlashtirilgan axborot tizimlari joriy qilindi. Xozirgi kunda joriy qilingan jami axborot xizmatlari soni 60 dan ortiqni tashkil qiladi. Ushbu xizmatlarni joriy qilish natijasida yuridik va jismoniy shaxslarning bojxonaga kelib tushayotgan murojaatlari sonining keskin qisqarishiga erishiladi. Mazkur axborot xizmatlari va interaktiv xizmatlar joriy etilishida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24noyabrdagi “Bojxona ma’muriyatichilagini takomillashtirish va O’zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-5582-son Farmoni va Davlat bojxona qo’mitasining normativ-huquqiy hujjatlari huquqiy asos hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot doirasida bojxona sohasini raqamli transformatsiya qilish

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma’muriyatichilagini isloh etish va O’zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to’g’risida”gi PF-6005-son Farmonida nazarda tutilgan bo’lib: Bojxona ma’muriyatichilagini isloh etish, bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish, “qog’ozsiz va elektron bojxona”ning mantiqiy davomi va rivojlanishi bo’lgan “raqamli bojxonani” shakllantirish, shuningdek, bojxona ishi sohasidagi umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish maqsadi ko’zda tutilgan.

Rivojlangan hamda rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlarning bojxona sohasidagi amalga oshirayotgan eng muhim islohotlari bojxona tartibotlarini (tovar moddiy boyliklari, jismoniy shaxslar, transport vositalari va pul mablag’larining harakatlanishini umumiy, har tomonlama nazorat qilish, bojxona to’lovlarini undirish va to’lanishini ta’minlash, bojxona audit) maksimal darajada avtomatlashtirish hamda raqamlashtirish hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, 2016 yildan Juhon bojxona tashkiloti tomonidan “raqamli





bojxona” atamasini qo’llanila boshlanganiga qaramasdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan xozirgi davrda dunyoga mashhur lug’atlarning sahifalarida “raqamli bojxona” atamasining aniq ta’rifi mavjud emas ya’ni xozirgacha rasmiy ta’rif berilmagan.

Jahon bojxona tashkiloti bosh kotibi, Kunio Mikuriya tomonidan o’zining “Raqamli bojxona, axborot asrining imkoniyatlari” nomli maqolasida bojxona ma’muriyatlari va Jahon savdo tashkiloti ish dasturlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalari muhimligi yana bir bor ta’kidlanib, raqamli bojxona atamasi quyidagicha ta’riflanadi:

“Raqamli bojxona bojxona to’lovlarini yig’ish va himoya qilish, tovarlar, odamlar, transport vositalari va pul oqimini nazorat qilish va transchegaraviy savdoni jinoyatchilikdan, shu jumladan butun dunyo bo’ylab bosh ko’tarishda davom etib turgan xalqaro terrorizmdan himoya qilish uchun raqamli tizimlardan foydalanishni anglatadi”.

Raqamli bojxonada qo’llaniladigan vositalar nafaqat axborot almashinuvini amalga oshirish, balki katta ma'lumotlarni aqlii tahlil qilish, qayta ishlash va to'plash texnologiyalaridan foydalanish asosida bojxona xizmatlari va biznes o'rtasida samarali hamkorlikni o'rnatish imkonini beradi.

Jahon bojxona tashkilotining qarashlariga ko'ra, "elektron bojxona" tushunchasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: bojxona maqsadlari uchun hujjatlarni elektron qayta ishlash, soddalashtirish va dematerializatsiya qilish; bojxona ishini “24/7” tamoyili bo'yicha avtomatlashtirish; bojlar va soliqlarni elektron to'lash; elektron to'lov kalkulyatori; mobil aloqa xizmatlari; tovarlarni elektron tarzda qaytarish va ular uchun to'langan bojxona to'lovleri; savdo operatori hududida skrining va boshqa xizmat tekshiruvlari; tovarlarni yuklashdan oldin dastlabki qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish.

Xozirgi paytda dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarning bojxona xizmatida, shu jumladan O’zbekiston Respublikasi bojxona organlarida ham elektron bojxona, bojxonani raqamlashtirish va avtomatlashtirish atamalari keng qo’llanilib kelmoqda. Albatta, ushbu atamalarning bir-biridan farqi, shuningdek, ularning bir-biriga o’zar bog’liqlik jihatlari bo'yicha ko'plab fikrlar, qarashlar mavjud.

Misol uchun, elektron bojxona tushunchasida qog’ozda amalga oshiriladigan jarayonlarni maksimal darajada kompyuterlashtirish hisoblanadi. Bojxona sohasidagi hujjatlar va jarayonlarning to’liq hamda mukammal holda kompyuterlashtirilishini - raqamli formatga (shaklga) o’tkazishni raqamlashtirish deb aytishimiz mumkin. Oddiy so’z bilan aytganda, bojxonani raqamlashtirish sohaga raqamli texnologiyalar (Big Data – Katta Ma'lumotlar, Machine Learning –





Mashinani o'rganish, Internet of Things – Buyumlar/Narsalar Interneti va boshqa ko'plab foydali texnologiyalar)ni joriy etishdir. Bojxonani raqamlashtirish bojxona sohasining ma'lum bir yo'nalishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning butun faoliyat sikli davomida uzluksiz boshqarishni, shu jumladan ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, toplash, o'zgartirish va tahlil qilish, shuningdek, bunday ma'lumotlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Elektron bojxona va raqamli bojxona o'rtaSIDAGI farqni sohadagi barcha jarayonlar bilan bog'lab quyidagicha keltirib o'tiladi.

Raqamli:

bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish, raqamli platformalar va texnologiyalar, to'lov mexanizmini raqamlashtirish, raqamli axborot texnologiyalari, raqamli tizimlar, raqamli moliyaviy aktivlar, tezkor-qidiruv faoliyatini hujjatlashtirishni raqamlashtirish, bojxona ma'muriyatini raqamlashtirish, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatini huquqiy qo'llab-quvvatlashni raqamlashtirish va boshqalar.

Elektron:

elektron hujjatlar, elektron shakldagi hujjatlar, elektron hujjat aylanishi, elektron bojxona tekshiruvi, elektron tekshirish va sertifikatlashtirish tizimlari, bojxona organlarining elektron hamkorligi, xalqaro elektron tijorat, elektron foydalanish imkoniyati, elektron bojxona tranziti, elektron xizmatlar, elektron deklaratsiya.

Raqamli bojxona o'z-o'zidan maqsad emas, vositadir va maqsad mavjud byurokratik jarayonlarni raqamlashtirish emas, balki eng yaxshi natijaga erishish uchun birinchi navbatda ularni tahlil qilish bo'lishi kerak.

Raqamli bojxona Jahon bojxona tashkiloti vositalari va ko'rsatmalaridan foydalangan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bojxona va transchegaraviy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik yondashuv sifatida shakllantirilishi mumkin.

Raqamli bojxona keng qamrovli, kelajakka qaratilgan tushunchadir, ya'ni bojxonani raqamlashtirish:

- Ilgor (raqamli) texnologiyalarni qo'llash
- Operatsion jarayonlarni o'zgartirish (bojxona operatsiyalari)
- Biznes jarayonlarini optimallashtirish (bojxona operatsiyalari)
- Biznes modellari
- Kengaytirilgan tahlil
- Sun'iy intellekt
- Mobil va taqiladigan qurilmalar



- Avtomatlashtirish
 - Robotlashtirish
 - Integratsiya texnologiyalari platformalari
 - Raqamli bojxona modeli va uning variantlari
- Raqamli bojxona: progressiv ishtirok (raqamli bojxona xususiyatlari)
- Avtomatlashtirilgan faoliyat
 - Elektron faoliyat
 - Elektron yechimlar
 - Bojxona rasmiylashtiruvining avtomatlashtirilgan tizimlari
 - Yagona oyna mexanizmi
 - Raqamli muhit
 - Raqamli texnologiyalar
 - Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari
 - Smartfondan foydalanish
 - Katta hajmdagi ma'lumotlar
 - Telematika
 - Bulut texnologiyalar
 - Mobil texnologiyalar
 - Kengaytirilgan tahlil va axborotni boshqarish vositalari.

Bundan tashqari, bojxona ishida avtomatlashtirish raqamlashtirishning ajralmas qismidir, biroq avtomatlashtirish bilan raqamlashtirish sinonim atamalar hisoblanmaydi. Avtomatlashtirish oddiyagina raqamli texnologiyadan foydalangan holda qo'lda bajariladigan ishlarni yanada samaraliroq qilish maqsadida inson aralashuviziz avtomatik tarzda amalga oshirish jarayonidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikr va mulohazalardan xulosa qilgan holda raqamli bojxonaga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Raqamli bojxona - bojxona sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bojxona chegarasini kesib o'tadigan insonlar, tovarlarga nisbatan bojxona operatsiyalari jarayonini to'liq raqamli transformatsiya qilish, avtomatlashtirish bilan barcha bojxona tartib-taomillarini inson omilisiz amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, dunyo hamjamiyati bojxona xizmatlari faoliyatida zamonamizda to'rtinchi sanoat inqilobi deb nomlanuvchi yangi texnologiyalar (sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, blokcheyn, narsalar interneti va boshqalar) shiddat bilan amaliyotga tadbiq etib kelinmoqda. Bojxona sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishda ham raqamlashtirishning ahamiyati katta. Bojxona organlari xizmat faoliyatiga raqamli



texnologiyalarni keng joriy etish orqali tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari, jismoniy shaxslar va bojxona xodimlari o'rtasida bojxona huquqiy munosabatlardagi mavjud hamda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan bo'shliqlar hamda kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.
2. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.
3. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.
4. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).
5. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Роль маркетинга в сфере агропромышленного комплекса Узбекистана. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1616-1620).
6. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
7. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. Miasto Przyszłości, 84-86.
8. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
9. Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. European journal of business startups and open society, 3(12), 154-157.
10. Niyozova, I. (2024). Improving the use of marketing strategies of enterprises in social networks. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 45(45). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11592



11. "The 4 faces og digital marketing" American Marketing Association. August 22, 2019.
12. Сайфуллаева, М. (2022). Инновационные маркетинговые решения и их эффективность в определении ёмкости рынка строительной продукции. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 25(25).
13. 13. Muhammedrisaevna, T. M., Bakhridinovna, A. N., & Rasulovna, K. N. (2021, March). Use of digital technologies in marketing. In E-conference Globe (pp. 281-284).
14. 14. Tairova, M. M., Kadirova, N. R., & Aminova, N. B. (2021). The Essence And Content Of Marketing In The Field Of Innovation. Essence, 5(2), 261-264.
15. 15. Junaydulloyevich, A. A., & Rasulovna, K. N. (2021). Price Formation in Marketing: A Tool for Price Formation and Change. Academicia Globe, 2(6), 142-146.
16. Navruz-Zoda, L. B., & Navruz-Zoda, Z. B. (2020). Improvement Of Social Prestige Of Entrepreneurial Companies In Bukhara Region. Academy, (3), 37-39.
17. Usmanova, A. B. (2022). Sport Tourism As A Sport And Form Of Activity. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), 212-214.
18. Усманова, А. (2022). The Current State And Analysis Of The Tourist Potential Of The Bukhara Region. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 15(15).
19. Navruz-Zoda, Z. (2023). Development Of Self-Employment Of The Population As A Factor Of Ensuring Economic Stability. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 33(33).
20. Rakhmatullaeva, F. M., & Aminova, N. B. (2022). Methodological Approaches To The Development Of Ecological Tourism Logistics. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), 207-211.
21. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(12), 47-50.

